



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 13-aprel, payshanba,

44 (23.765)-son

KUN
HIKMATI

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!

MAS'ULLAR HISOBOTI DEPUTATLAR TAKLIFLARI BILAN TO'LDIRILDI

12-aprel kuni xalq deputatlari viloyat Ken-gashining sakson to'rtinch sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiya ishini Kengash kotibi yati mudiri Z.Karimov boshqardi.

Kun tartibiga ko'ra, dastlab viloyat ichki ishlar bosh-qarmasi boshlig'ining o'rinnbosari – jamoat xavfsizligi xiz-mati boshlig'i X.Umarovning 2023-yil I chorak davomida viloyatda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlar yuzasidan hisoboti eshitildi.

Ta'kidlanishicha, 2023-yilning o'tgan 1 choragi davomida viloyat hududidagi 1126 ta mahallaning 861 tasi-da jinoyat sodir etilmadi. Barcha sohalar bo'yicha qayd qilingan jinoyatlar soni 100 ming aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 43 tani tashkil etib, respublikada ijobjiyligi jihatidan 5 o'rinda qayd etildi. Viloyat II Buning malakali rahbar va xodimlaridan iborat "Amally yordam ko'satish guruhlari" tomonidan "qizil" toifadagi mahallalarda jinoyatchiliqni jilovlash bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida 44 mingta turli ko'rinishdagi huquqbazarlilar aniqolanib, huquqbazarlarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rildi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan 397 nafar (2022-yilning shu davrida 700 nafar) ayollarga "himoya orderi" berilib, zo'ravonlik sodir etgan shaxslar ustidan nazorat o'rnataldi. Zo'ravonlikka uchrugan xotin-qizlarning 2 nafarini voyaga yetmaganlar, 139 nafarini 18-30 yoshliar tashkil etgan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat va huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida o'tkazilgan tadbirlar davomida 1292 ta holat aniqolanib, mas'ul shaxslar va ota-onalarga ma'muriy choralar ko'rildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan qotillik jinoyati 10 foizga, nomusga tegish 25 foizga, talonchilik 30 foizga, bosqinchilik 66 foizga, bezorilik 5,6 foizga, o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish 27 foizga, yengil tan jarohati yetkazish 5,2 foizga, avtoulvoni olib qochish 67 foizga, o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalar 18,6 foizga kamaydi.

Shuningdek, xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 110 tadan 75 taga, voyaga yetmaganlar jinoyati 21 tadan 20 taga, muqaddam sudsangalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 141 tadan 61 taga kamayishiha erishildi.

Biroq viloyat hududida umumiy jinoyatlar 16 foizga (1530-1771), uncha og'ir bo'lgan jinoyatlar 4 foizga (432-450), og'ir turdag jinoyatlar 45 foizga (312-454) oshgan.

Bundan tashqari, o'g'irlik, firligardlik jinoyatlarining ham ko'payishiha yo'l qo'yilgan.

Hisobot mas'ullar va deputatlari tomonidan atroficha muhokama qilinib, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olishda har bir sektor hamda boshqa mutasaddi davlat organlari rahbarlarining shaxsiga mas'uliyatini oshirish, bu borada ja-moatchiliq imkoniyatlaridan keng foydalanish, joylarda kuzatuv kameralari o'rnatali yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Shundan so'ng Majburiy ijob byurosi viloyat boshqarmasining 2022-yilda faoliyat yuzasidan boshqarma boshlig'i S.Jabborov hisobot berdi.

Hisobotda keltirilishicha, boshqarma va tuman, shahar bo'limlari tomonidan o'tgan yil 6,5 trillion so'mlik 541 ming 717 ta jro hujjati yuzasidan amalga oshirilgan majburiy ijob tadbirleri natijasida 4,6 trillion so'mlik 368 ming 971 ta jro hujjati yuzasidan yakuniy qarorlar qabul qilingan. Ular bo'yicha amalda 2,4 trillion so'mdan ortiq mablag' undirilgan.

2022-yil davomida ijtimoiy daftarlarga 45,7 milliard so'm mablag'lar o'tkazib berilgan.

AMALDAGI KONSTITUTSIYADA IX bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

37-modda.

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adulatl mehnat sha-roitlarida ishlash va qonunda ko'satilgan tarbiya ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'satilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqilanganadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI REFERENDUMI 2023

42-modda.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sha-roitlarida ishslash, mehnati uchun hech qanday kamshitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lma-

gan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqilanganadi.

KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar

43-modda.

Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi.

44-modda.

Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqilanganadi.

Bolalar mehnatining bolaning sog'ligiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqilanganadi.



Kun surati



KOMISSIYA FAOLIYATI HAQIDA AXBOROT BERILDI

Markaziy saylov komissiyasining kecha o'tkazilgan navbatdagi majlisida O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazuvchi 7-Samarqand okrug komissiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan komissiya raisi F.Toshevning axboroti eshitildi.

Axborotda ayni paytda okrug hududida 1111 ta referendum o'tkazuvchi uchastka tuzilib, komissiyalar tarkibi tasdiqlangan, barcha tuman va shaharlarda uchastka komissiyalari a'zolari uchun seminar-treninglar o'tkazilani haqida ma'lumot berildi.

Referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyalarining Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi (SJBAT) orgali saylovchilarning yagona elektron ro'yxatiga ulana olishini ta'minlash maqsadida uchastkalarda SJBAT talabraliga javob beradigan kamida ikkitadan kompyuter o'rnatalgani va ular yuqori tezlikdagi internetga ulangani ta'kidlandi.

Shuningdek, okrug va uchastka komissiyalarining bungi kundagi faoliyati to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Majlisdan so'ng omavviy axborot vositalari vakillari ishtirosida briefing o'tkazildi.

7-Samarqand okrug komissiyasi matbuot markazi.



Kattaqo'rg'onda MUAMMOLAR qanday hal etilmoqda?

Kattaqo'rg'on viloyatimizdagi yirik qishloq tumanlardan biri bo'lib, bu yerda so'nggi paytlarda barcha sohalarda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar odamlar hayotida qanday aks etmoqda? Shu va boshqa savollar bilan tuman hokimi vazifasini bajaruvchi Jamshid Nasriddinovga murojaat qildik.

- Jamshid To'lg'ovich, ishsiz odamlar bandligini ta'minlash masalasi hamon dolzarbigicha turibdi. Tumanda bu boroda qanday chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda?

- Aholni ish bilan ta'minlash, asosan, iqtisodiyotga sarmoya jalb etgan holda yangi ish o'rinnari tashkil etishi hududiy dasturlarning amalga oshirilishiha bog'iqli. Shuning uchun bu masalaga katta e'tibor berilyapti. Masalan, hududiy investitsiya dastrigiga asosan, o'tgan yili umumiy qiymati 192,4 milliard so'mlik 61 loyihaning ishga tushirilishi natijasida 470 nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi. 2022-yil tuman bo'yicha 70 million AQSH dollarri miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlarni jalb qilish rejasini ishlab chiqildi. Amalda esa yil yakuni bilan 92,8 million AQSH dollarri miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlari o'zlashtirildi. 2022-yil yakuniga ko'ra, 14,9 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Joriy yilda huddiy investitsiyasi dastruri doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarning umumiy qiymati qariyb 5 milliard so'mni tashkil etadi. 502 ta loyihaning ishga tushirilishi natijasida 3 ming 157 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.

- Ayni paytada tumanda yugoridagi das-turlar doirasida yana qanday yirik loyihalar amalga oshirilmoqda?

- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-may-dagi "Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanida sement zavodi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, 340 million AQSH dollarri miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan sement zavodi loyihasini amalga oshirishiga kirishildi. Loyihaning quvvati 3 million tonnaga yaqin M-600, M-500 (oq) va M-400 markali sement ishlab chiqarishni tashkil etadi. Loyeriya 2023-yil oktabr oyida ishga tushirilishi va 600 ta yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "220 MVt quvvatga

ega fotoelektr stansiyasini qurishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mazkur loyiha ham amalga oshirilmoqda. Loyiha bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tenderda, Birlashgan Arab Amirligining MASDAR kompaniyasi g'olib deb topildi. Loyihani ishga tushirish 2023-yilning to'rtinchini choraqida rejalashtirilgan. O'tgan yili amalga oshirilgan ana shunday yirik loyihalardan "Kattaqo'rg'on elektrotexnika zavodi" mas'uliyati cheklangan jamiyatining "TMG" tipidagi transformatorlar ishlab chiqarish loyihasi, "Qo'rg'on Islombek Nur" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan metall buyumlar ishlab chiqarish loyihasi, duvxox va pechlar ishlab chiqarish loyihasini alohida ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, "Firdavs Qandolat Invest" MCH-Jning qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish, "Rustam-plastiks" OAning tomchilatish suv'orish tizimi uchun polietilen quvurlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalari ham e'tiborga molik. Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 100 dan ortiq kishi doimiy ish bilan ta'minlandi.

- Ikki yil avval tumanda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining Kattaqo'rg'on filiali va kichik sanoato zonalari tashkil etilgan edi. Bu zonalarda hozir ahvol qanday?

- Darhaqiqat, "Yakkabog'" mahalla fuqarolar yig'ini Iska qishlog'i hududidagi 10 hektar yerda "Urgut" EIZ Kattaqo'rg'on filiali tashkil etidi. Bugungi kunga qadar bu yerda bosh reja ishlab chiqilib, loyiha takliflari kiritildi. "To'qimachilik kombinati korxonasi" loyihalardan birining umumiy qiymati 15 million dollar bo'lib, shundan 4,4 million dollar bank kreditlari. Bu yerdagi 210 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdag'i qaroriga muvofiq, Kattaqo'rg'on tumanida 3 hektar yet maydonida "Kattaming" kichik sanoato zonasini tashkil etildi. Bu yerdagi 2 ta loyiha amalga oshirildi. "Kattaqo'rg'on klasfer" mas'uliyati cheklangan jamiyatining "Tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil

etish" loyihasining umumiy qiymati 2,6 million dollar bo'lib, 350 ish o'rni yaratiladi.

- Bundan 7-8 yil avval Kattaqo'rg'on tumanida fuqarolar yig'inarining deyarli 70 foizi o'z binosiga ega emasdi. Hozir bu masala qanday hal qilinmoqda?

- Hammasi yaxshi tomonqa o'zgaryapti. Keyingi yillarda tuman iqtisodiyoti rivojlana-yotgani natijasida endiligidagi barcha fuqarolar yig'inarli o'z binolari ega bo'ldi. Birgina o'tgan yilning o'zida 21 ta fuqarolar yig'ini yangi binoga ko'chib o'tdi va tumanimiz bu yo'nalishda respublikada binchiri o'rinni egalladi. Har bir binoda rais, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoliyati va profilaktika inspektorlari uchun alohida xonalar mavjud.

- Tumanda kambag'allik qanday qisqartirilmoqda?

- Joriy yilning 1 yanvar holatida tumanda iqtisodiy faol aholi 109,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 10 ming 302 nafari yoki 9,4 foizi ishshisizlardi. Fikrimcha, insonning kambag'alligi faqatgina mahalliy hokimiyat va boshqa tuzilmalar faoliyatiga bog'iqli emas, bu yerda hamma gap odamning o'zida. Ba'zilar o'ylaganidek, kambag'allik kimigadir tovuq yoki sigir olib berish bilan kamayni qolmaydi. Uni chiqur o'yangan harakatlar bilan asta-sekin kamaytirish kerak. "Mahallabay" va "xonodonbay" ishslash doirasida hokim yordamchilar ham bu haqidatni odamlarga tushuntirishga harakat qilyapti.

- Bu boroda hokim yordamchilar qanday ish olib bormoqda? Odamlar haqiqata ham ularning yordamini his qilyaptimi?

- Albatta, bu tizim o'z samarasini ko'rsatdi. O'tgan yili hokim yordamchilar sa'y-harakatlari bilan tumanda kambag'allik ikki foizga kamaydi, hozir esa bu raqam 13,4 foizni tashkil etmoqda. Joriy yilda bu ko'sratikchini yana ikki foizga kamaytirishni mo'ljallayapmiz. Masalan, "Yakkabog'" mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi Nabijon Jo'rayevning bevosita ko'magida Lochinbek Sayfullayevlar olaishi ishshilar uchun qo'lqop, Azizbek Murodov olaishi avtobus va yengil avtomobillar uchun tormoz barabarlanari ishlab chiqarishni yo'iga qo'ysi. Shuningdek, parrandachilikni rivojlantirish uchun binchiri guruh nigoironi Alik Kenjayevga 20 million so'm imtiyozi kredit ajarildi. Natijada hozir bu oila 350 bosh parranda parvarishlash bilan birga, ularga ozuqa ham tayyorlamoqda. Oilaning oylik daradasi esa 5 million so'mni tashkil etadi.

Kadan mahallasi hokim yordamchisi Sardor Mardonov tashhabusi bilan "XM tibby markaz" korxonasi tomonidan "Bakery By Dimer" xususiy klinikasi va mikromarkazini tashkil etish loyihasi amalga oshirilib, 16 nafar qishloq aholisi doimiy ish bilan ta'minlandi.

- Juma - Kattaqo'rg'on yo'lining holati haydovchilarini ham, yo'lovchilarini ham tashvishga solyapti. Bu yo'ini ta'mirlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

- Bu yo'ini kapital ta'mirlash va kengaytirish uchun katta mablag' tabab etiladi. Afsuski, bir tumanning budjet mablag'lari bu muammoni hal qilishga qodir emas. Shu bois bu boradagi takliflarimizni yuqori tashkilotlarga beridik. Umid qilamanki, yaqin orada Juma - Kattaqo'rg'on yo'lini ta'mirlash masalasi ijobji hal bo'ladi.

- Mazmunli suhbatningiz uchun rahmat.

Yormamat RUSTAMOV suhbatlashdi.



Samarqanddagi 80 ta madaniy meros obyekti

Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasida bo'ldi

Viloyat madaniy meros boshqarmasida Madaniy meros agentligi huzuridagi ilmiy-ekspert ken-gashining sayyor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda mamlakatimiz moddiy-madaniy merosining ko'chmas mulk obyekti sifatida davlat muhofazasiga olinishi, arxeologik, arxitektura va turizm maskanlarining infrazituzilmalarini rivojlantirish, monumental san'at asarlari asrash masalalari kengash a'zolari

- arxitektura-qurilish sohasi mutaxassislar, san'atshunos, sharqshunos, muzeishunos hamda tarixchi olimlar, restavrator mutaxassislar tomonidan muhokama qilindi.

- Samarcanda bejizga Markaziy Osiyo madaniyati poytaxti, deya ta'rif berilmagan,

- deydi Madaniy meros agentligi direktorining binchiri o'rnbosari, kengash raisi Tursunali Qo'ziyev. - Tabiiyki, bunday e'tirofa shaharning qariyb uch ming yillik tarixa ega ekanligi asos bo'lgan. Uzoq yillik o'tmishi davomida shaharning bir necha tarixiy

qatlamlari ustida qayta-qayta bino va in-shootlar qurilavergan. Shunday ekan, bugun yoki bundan keyingi davrlarda ham amalga oshirilayotgan qurilish-bunyodkorlik ishlarining shahar qiyofasi, tarixiy ashlarni qatlama ziyan yetkazmasligining oldini olishimiz kerak. Buning uchun madaniy meros obyektlari atrofida bajarilayotgan qurilish ishlariiga oid chora-tadbirlarga xulosa beruvchi ilmiy-ekspert kengashi faoliyat yuritmoqda, naqaqt respublikamiza, balki mintaqadagi eng ko'p madaniy yodgorliklari, tarixiy ashyolarga ega bo'lgan Samarqandning madaniy yodgorliklari, turizm maskanlarini asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga o'zingiz asl an'analari asosida yetkazish kengashimizning asosiy vazifasi sanaladi.

Kengash davomida olimlar tomonidan madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, ta'mirlash-tiklash ishlari olib borish, pudrat ishlarini amalga oshirish, ularga kerakli mablag'lar yo'nalitish yuzasidan 121 (Samarqandga oid 80) ta loyiha va takliflar ko'rib chiqildi va xulosalar berildi.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, joriy yilning 1-mart holatiga vito'yada avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismalari ulgurji va chakana savdo aylanmasi 257,6 milliard so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,4 foizni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 38,0 milliard so'm (o'sish sur'ati - 61,0 foiz), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi - 219,6 milliard so'mni (o'sish sur'ati - 95,9 foiz) ko'rsatdi.

Hokim yordamchisi mahallaning iqtisodiy "richagi" bo'lishi kerak

Mahallalarda hokim yordamchilari faoliyat yuritayotganiga bir yildan oshdi. Ko'pingcha faoliyatimiz haqida so'raganlar ishimiz bilan tanishib chiqar ekan, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar mahalla raisining ishi bilan qariyb bir xil emasni degan xayolga boradi va shu savolni o'zimizga ham aytadi.



nazorat qilib boriladi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab avtobus haydovchilaridan kunlik tushum talab qilinmaydi. Balki avtokorxonalar bilan tuzilgan brutto - shartnomasi asosida ish olib boradi, ya'n bosib o'tilgan masofa va yo'lovchilarga sifatlari xizmat ko'sratish tizimi yo'iga qo'yildi. Bu degani jamaot transporti ertalab soat 6:00 da yo'iga chiqib, kech soat 20:00 gacha o'z yo'nalishda harakat qiladi. Belgilangan vaqtindan ilgari avtobazaga ketib qolmaydi. So'nggi yo'lovchilari ham manziliga olib borib qo'yishga majbur. Avtokorxonalar tomonidan qilingan ortiqcha xarajatlar esa maxsus jamg'arma tomonidan qoplab beriladi.

Transport boshqarmasida maxsus nazoratchilar guruhi tuzilib, ular har bir yo'lovchi jamaot transportida monitoring o'tkazib boradi. Chiptasiz yo'lovchilar avtobuslarga chiqarilmaydi, borligi aniqlansa, jarima to'lashadi. Haydovchilar ham chiptasiz yo'lovchilarni olib yurgani uchun jarimaga tortilishi ko'zda tutilgan.

Anjunma M-37 va A-378 Samarqand halqa yo'li (Qarshi yo'li) kesishmasida, M-37 Samarqand halqa yo'li Qunduzso'fi (Motrit aylanasi) mahallasida va M-39 Samarqand halqa yo'li Chumchuqli mahallasi (Toylcq aylanasi) hududida avtoboshbekat va avtovaroghalar qurish yuzasidan rejalashtirayotgan takliflar haqidagi ham axborot berildi.

- Ushbu avtoboshbekatlar tumanlardan kirib kelayotgan yo'lovchi tashish mashinalari oqimini qisqartirish hamda shahardagi tibandaliklarni kamaytirishga yordam beradi, - deydi boshqarma boshlig'i. - Shuningdek, hozirda eng og'riqli nuqtalar sanaladigan Hazora avtoboshbekati, Dahbed - Rudakiy ko'chalari kesishmasi hamda Siyob avtoboshbekati (Kaftarkxonasi) hududlaridagi tartibszizligining oldini olishta xizmat qiladi.

Matbuot anjumanida jurnalistlarga "Yashil shahar" loyihasi asosida amalga oshiriladigan ishlar haqida ham ma'lumot berildi.

Dilmurod TO'XTAYEV, H.ELTOYEV olgan surat.

viloyat hokimligi va tegishli boshqarmalar tomonidan mahallamizga 210 million so'm kredit mablag'ları ajratilishi rejalashtirildi. Tadbirkorlik faoliyatini yo'lg'a qo'yish istagiida bo'lgan 20 nafar jismoniy shaxsga imtiyozi kredit mablag'ları ajratilib, 31 nafar fuqaroning ish bilan bandligi ta'minlandi.

Mahalla infratzilmasi yaxshilash maqsadida hududagi bir kilometr ko'chaga asfalt beton qoplamasi yotqizildi, 0,9 kilometr ichimlik suvi quvurlari ta'minlandi, 20 dona elektr tayanch ustunlari almashtirildi, bitta transformator ta'mirlandi.

Ushbu yangilanishlar aholining mahalla ishlariiga daxldorligini oshirish, yoki bu masalalarni birligida, bahanijihat hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ja'far RAHMATOV, Samarqand shahar Qo'shchinor mahallasi hokim yordamchisi.

JAMOAT TRANSPORTI TIZIMIDA QANDAY O'ZGARISHLAR BO'LADI?

-2024-yildan avtobus haydovchilaridan kunlik tushum talab qilinmaydi. Nega?

- Chiptasiz yo'lovchi ham, uni olib yurgan haydovchi ham jamiyatma to'laydi. Nega?

- Jamoat transporti qachondan boshlab 6.00 dan-20.00 ga-cha harakatlanadi?

Matbuot uyida transport boshqarmasi boshlig'i A.Ashurov Samarqand shahrida 2022-2030-yillarda jamaot transporti tarifuzilmasini rivojlantirish masalalariga bag'iishlanan matbuot anjumanida shu kabi savollarga javob berdi.

Rossiyaning «Simetra» xorijiy korxonasi tomonidan Samarqand shahar transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan rejaga ko'ra, 41 ta yangi avtobus yo'nalishlari, jumladan, 8 ta magistral va 33 ta yetkazib beruvchi yo'nalishlar tashkil etildi.

- Xitoydan olib kelgingan 100 ta avtobusning 75 tasi "Temiryo'l" avtobosh bekati - Samarcand xalqaro aeroporti", "Do'stlik mahallasi - Boqiy shahar", "Temiryo'l vokzali - Shodiyona savdo majmuasi", "Hazorabekati - Toyloq tumani markazi",

"Temiryo'l vokzali - Qorasuv massivi", "Qorasuv massivi-Toshkent mahallasi", "Sartepa maskani - O

Quyidagilarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash joriy etiladi:

a) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan noturajoy maqsadidagi ko'chmas mulk obyektlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkalari;

b) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga dehqon xo'jaliklari uchun belgilangan soliq stavkalar bo'yicha.

Mazkur norma yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar tomonidan noturajoy binalarida tadbirkorlik faoliyati uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish uchun dehqon xo'jaliklari va jismoniy shaxslar tomonidan foyda-

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovlar o'zgardi

laniladigan suv resurslariga soliq solishning teng sharoitlarini yaratish maqsadida joriy etilgan. Soliq to'lovchilarning ushbu toifasi soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi.

2022-yilda amalda bo'lgan soliq stavkalari o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda. Ya'ni, hisobot taqdim etish va to'lovlar ni amalga oshirish quyidagi muddatlarga o'zgartirildi:

- O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (bundan qishloq xo'jaligi korxonalar mustasno)

uchun soliq hisobotini taqdim etish, u hisobot beriladigan soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay belgilanadi;

- soliq davri uchun soliq, bo'nak to'lovlarini hisobga oлgan holda, xuddi shu muddatda to'liq to'lanadi;

- soliq organlari tomonidan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini topshirish, u soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalar uchun soliq

to'lashning ikki muddati belgilandi:

1-oktabrga qadar – qishloq xo'jaligi korxonasi o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliq ko'paytirish (yetishirish) uchun foydalananidan suv hajmi asosida soliq organlari tomonidan aniqlangan yillik soliq summasing 70 foizini to'laydi. Bunda qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan o'tgan soliq davrida foydalilanigan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumot mavjud bo'lmaganida soliq summasi svudan foydalinish va svuni iste'mol qilish sohasida-



gi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv iste'moli normativlari bo'yicha aniqlanadi.

15-dekabrga qadar – soliqning qolgan summasi to'lanadi.

B.AXMEDOV,

Samarqand shahar davlat soliq inspeksiysi shu'ba boshlig'i.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralarini ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Past Darg'om, Samarqand, Oqdaryo, Toyloq, Urgut, Jomboy, Bulung'ur tumanlari hamda Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hududi bo'ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizga murojaat qilmoqdamiz.

Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlar buzilishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'iy nazar) yo'q'ymaslik uchun "Magistral gaz quvurlari himoya qodasi"ga va O'zbekiston Respublikasi "Er kodexi"ning 69-moddasiga asosan, muhofaza hududi o'rnatilgan.

Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalar, kran tunuglari, elektr kimyoiy himoyalash uskunalar (EHZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), gaz quvurlari trassasi bo'ylab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvcchi belgilardir.

Quvurlarning muhofaza zonasiga kiruvchi maydonlar yerdan foydaluvchilardan olib qo'yilmaydi, faqat mazkur maydonda magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalari qat'iy roya etgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdag'i ishlarni olib borish mumkin.

Muhofaza zonasida quvurlarning me'yorida ishlashiga xalaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdag'i ishlarni bajarish taqiqlanadi. Xusus:

- har qanday qurilish ishlarni olib borish, doimiy va vaqtinchalik imoratlar qurish;

- har xil turdag'i daraxt va butalarni ekish, yem-hashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, chorva mollarini saqlash va suv ichadigan hovuzlar qu'rish, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish va baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlarni parvarishlash;

- quvur yo'nalishi ustidan o'tish va kesib o'tish yo'llarini qurish, traktor va boshqa



rini o'chirish va yoqish;

- belgilangan hududda turli xil chiqqindilarni yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarni to'kish;

- har xil maqsadlarda olov yoqish, quruq hashak va somonlarni yoqish;

- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlari ekish.

Magistral gaz quvurlarini himoya qilish qoidalaring buzilishiда aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra javobgarlika tortiladi.

Magistral gaz quvurlari bo'ylab xavfsizlik uchun uchastkasi ko'rinishida, quvur o'qining har ikki tomoniga 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi.

Qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni magistral gaz quvurlarining o'qidan har ikki tomoniga 25 metr masofada o'tdigan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida "Qurilish me'yoriyari va qoidalari" (QMQ 2.05.06-97) me'yoriy hujjat asosida magistral gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza chududlari belgilangan.

Unga ko'ra, diametri:

- 1200 mm.dan 1400 mm.gacha bo'lgan



magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafa – 350 metr;

- 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafa – 300 metr;

- 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafa – 250 metr;

- 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafa – 200 metr;

- 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafa – 150 metr;

- 300 mm va undan kichik bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafa 100 metr va gaz taqsimlash shoxobchalar har tomonidan himoya chududi (muhofaza chududida har qanday ishlarni olib borish taqiqilangan) 100 metr.

Shu bilan birgalikda aholi e'tiborini quydagi larga qaratmoqchimiz. Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatlisiz avvaldan qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalariga mulk sifatida rasmiylashtirib berilmoga. Lekin, magistral gaz quvurlarining xavfi hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud"

ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzilishi kerak bo'ladi.

Agarda hamyurtlarimizning yer uchastkasi yoki dehqonchilik qilayotgan maydoni magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo'lsa, biror turdag'i qurilish ishlarni boshlashdan oldin, shu gaz quvuriga xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib ish ko'rish tavsija etiladi. Shunday holda fuqarolar o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asabuzzarli va keraksiz moddli chiqimlarдан hol bolishadi.

Magistral gaz quvurlari qoidalari buzilishiga sabab bo'lgan mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning "Magistral quvurlari himoyasi qoidalari buzilishi" qoidalariga qiziqilgan 150-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

Tashkilot manzili:

Samarqand tumani Gulobod maskani, Gazchilar qo'rg'oni.

Telefonlar: +99866-612-56-01,

612-53-04, +99899-022-77-12.

Azamat KARIMOV,

Samarqand magistral gaz quvurlari boshqarmasi boshlig'i.

UMUMIY YIG'ILISH O'TKAZILADI!
Nurobod tumanidagi "Jom dehqon bozori TMK" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga ta'sischilarining umumiy yig'ilishi 2023-yil 13-may kuni soat 10:00 da o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:
- 2022-yil yakunlari bo'yicha hisobot;

- 2023-yil biznes rejasini tasdiqlash;

- ta'sischilar xotixatini shakllantirish;

- boshqa masalalar.

Manzil: Nurobod tumani "Girdicho'rg'on" MIFY Jom qishlog'i.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

*** *

10-apreldagi qaroriga asosan o'z tashkiliy-huquqiy shaklini "YANGIARIQ GRAPES WINE" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartiradi. "YANGIARIQ GRAPES WINE" mas'uliyati cheklangan jamiyat "YANGIARIQ GRAPES WINE" fermer xo'jaligining barcha huquq va majburiyatlari bo'yicha

qurilish-montaj, portlatish va burg'ulash ishlarni amalga oshirish, tupoqni surish va tekislash;

- melioratsiya ishlarni bajarish, sug'orish va suv qochirish kanallarini qurish, chuqurlashtirish;

- nazorat-o'ichov quduqlari, nazorat-o'ichov punktlari, bildiruvchi va ogohlantiruvchi belgilarni buzhish, joylarini o'zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytiruvchi punktlarning qopqoqlarini, kimyoiy himoyalash stansiyasi va boshqa uskunalar atrofiga o'rnatalgan sim to'siqlarni ochish va ichiga kirish, kranlar, zulfinlar va jo'mraklarni ochish yoki yopish, aloqa vositalari va energiya ta'minoti uskunala-

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Vaseyeva Zuhra (2015-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

*** *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ibragimov Zayniga (2001-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

*** *

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatova O'mas To'rayevich notarial idorasida marhum Arukov Normaxmatga (2010-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Ahatova O'mas To'rayevich notarial idorasiga etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirbegim ko'chasi, 26-uy.

*** *

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatova O'mas To'rayevich notarial idorasida marhum Arukov Normaxmatga (2010-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Ahatova O'mas To'rayevich notarial idorasiga etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirbegim ko'chasi, 26-uy.

*** *

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Norbayev Zakirbay Urinbayevichga (2021-yil 5-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Muhammadiyev Farhod

(2020-yil 27-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ibragimov Ulmas Isoyevichga (2022-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Ibragimov Ulmas Isoyevichga (2022-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk



↓ "Zarafshon" gazetasi - 110 yoshda

REDAKSIYADA ISHLAGAN KUNLARIMNI QO'MSAYMAN

1983-yilda o'rta maktabni bitirganimdan keyin bolalik orzuim - Samarqand davlat universitetining o'zbek va tojik filologiyasida o'qish uchun shu fakultetga hujjat topshirdim. Kunduzgi bo'limga o'qishga kira olmay, kechgiga kirdim. Shu sababli kunduzi viloyat "Lenin yo'li" (hozirgi "Zarafshon") gazetasida musahih yordamchisi, musahih, muxbir, maxsus muxbirlik vazifalarida faoliyat ko'rsatganman. Erta-yu kech kunim redaksiyada, uning kutubxonasida o'tardi.

Bir kuni bosh muharrir Ahmadjon Muxtorov meni chaqirib, kotiba Shoira opaga gazetaning urush davriga oid taxlamini olib kelishni aytdilar. Gazeta hajmi kichkinagini, bir varaqqa bo'lib chiqqan ekan urush vaqtin. Ahmadjon aka "Urush vaqtida gazetada urush orti mehnating yoritilishi" mavzusida maqola yozishimni bildirdi.

Taxlamdag'i gazetalar ellikta yo'chiqadi, yo'chiqmaydi. Sharillitat boshdan oxir o'qib, keraklarni belgilab, magolani boshlab, uch vaqtdan ortiq o'yozma yozib, Shoira opaga ko'chirishga berdim. Paşa yozganlarimni terib, bosh muharririga olib kirdi. Ahmadjon aka meni chaqirib "Bahodirxon, bugundan boshlab endi "sirtqi" da o'qiyisiz. Bundan keyin "Gazetanining universiteti"da o'qiyisiz. Bekorchi ish bilan ko'chaga chiqish yo'q. Qanday kitoblar o'qilayotganini hisobi o'zimga berasiz. Nima yordam bo'lsa, uyalmaysiz. Biz sizga ishondik... Nima yozsangiz, to'g'ri o'zimga olib keling, kelishdikmi?", dedi.

Menga gazeta mas'ul kotibi o'rbinbosariga yordam berishim ham belgilandi. Mas'ul kotib Habib Temirov, o'rbinbosar Hamza Shukurov edi. O'sha vaqtlar tahririyanatlari nafaqat ishxona, uy desak ham bo'lardi. Chunki gazeta haftasiga besh marta chiqardi. Yarim kechasi soat bir-ikkilarda "Teletay" degan tuyuk yopilsa, bu Moskva ruxsat berdi degani, shundan keyin gazeta bosmaxonaga topshirildi. Ungacha o'sha son navbatchi musahihlar-u ularning yordamchilarini, navbatchi muharrir-u ishga tegishli hamma xodim ishxonada bo'lardi.

Bizga o'xshagan bo'yoqdar har kuni navbatchi, o'z xohishim bilan, albatta. Hamza Shukurov bilan birga ishlarni yakunlab, qo'shilib uylariga ketgan kunlarimni ham ko'p bo'lgan. Musahih uchun mashinistiklar - Jamila opa, Sanoat opa, Nasiba opa biz tengilarga bolalariga qaragandek qarar, musahihlikning sir-asrорларини о'ргатди.

"Zarafshon" gazetasini muharrir Farmon Toshev bilan yaqinda Toshkentda, Yozuvchilar uyushmasida suhbata-sharkannamiz, hademay gazetaning 110 yillik to'yi bo'lishini aytib qoldi. "To'ya to'yna degandy, gazetada ishlagan paytalaryndagi xotiralarni qog'ozga tushirib, bizga jo'natsangiz", dedi. Bir vaqtlar senga so'z nima, gap tushish, fikr aytish nima ekanligini, fikr ortida jon bo'lishi kerakligini, gazetadagi so'z, yoziq, toshga o'yilgan bitik, u abadga qoladigan narsa ekanligini, yozgan odamning ilmi, fahmu farosatini ko'rsa-tib turishini uqtirgan, qo'lingga qalam tuttirganlardan biri shunday desa, bosqacha bo'lib ketganan kishi. Esimda, talabalik, ijara-chili, davri, ichmasak-da, chekmasak-da kitobga bo'lgan muhabbat, kitob sotib olishga bo'lgan qiziqish ortida yetmish so'mlik oylik yetmasdi. Yana undan bo'yoqlik solig'i olib qolindan. Tahririshda erkin pul so'rashimiz mumkin bo'lgan akalar bor edi. Hatto uyalmasdan qarzni qaytarmas ham edik. Shunday akalar Sulaymon Husainov, Adam Hayitov, Jamol Tursunov, Aziz Yo'idoshev, Farmon Toshev edi.

Shuningdek, hikoyalari, she'rlarimizni qo'limizdan olib shundoq "nomer" ga tushirib yuborgan Erkin Azamatov, adabiyotning vazifasi nima ekanligini erinmay o'rgatgan Iso Abdurahmonning bolaligidagi Qrimdan quvq'ingin qilinganlarida, hovlilaridagi o'choqlariga qolib ketgan qumg'onning qaynab qolganini, uni borib o'tdan olishgayam ruxsat bermaganlarini ko'p bor eshitgan bo'lsamda, u kishiga yana aytib bering, deb xonasiga kirganlarim bir-bir ko'z oldimdan o'tdi.

Yana xotiralarga cho'maman: "Lenin yo'li" gazetasini sababli xalq depatlari viloyat kengashi ijoysi qo'mitasining "Davlat til haqidagi sonunu amalga oshirish va nom qo'yish komissiya" siga mas'ul kotib bo'lgandim. "Sharqqa sharqonalik yarashadi" ottiq maqolamiz gazetaning 1989 yil 2-fevral sonida chop etilgan. Hafta-o'kin kun o'tib, journalist, ustoz Abdurayim Ubaydullayev viloyat ijoqo'miga chaqirdilar. Xonasidamiz. Maqolani kulib-kulib o'qidilar. Bir vaqt telefon jiringladi. U kishini chaqirishdi, meniyam birga yurasiz, viloyat ijoqo'mining raisi Toshbo'ri Qilichev chaqiryapti, dedilar. Birga chiqdik. Rais bovayam kulib-kulib, gazetaga ko'z tashlagan bo'ldi-da, Abdurayim akaga "Qalay, ishlasib ketaslarimi?", deb so'radi. "Ha", degan javobdan so'ng "Tushdan keyin buyruqqa qo'q'oy, o'zingiz tayyorlang. Siz, yigit, engi gazetada ko'rsatgan kamchiligi muammolarni o'zingiz

to'g'rilaysiz, muammo bo'lsa aytasiz, - dedi va Abdurayim akaga yuzlandi. - Yigitni bugunoq gazetadan ko'chirib kelinglar. Redaktorni menga ulanglar. Ko'zi chaqnab turibdi, bu yigit eplaydi, tog'ning bolasi ekan..."

Keyin o'zi chorvador bo'lganligi uchun menga shu sohadan bir-ikitta savol berdi, qarsillatib tashladim. "Ana, chorniyam tushunar ekan, bundan keyin hamma yozuv-chizuvningi qo'shib o'rgansin..."

Yozgan maqolamidan ikki band keltiraman:

"Samarqand shahar soveti ijoiroy komitetining toponomik komissiyasi nomigagina tuzib qo'yilgan, ularning ishi sezilmayapti. Qishloq rayonlarida esa hatto ayrim ijrokom xodimlari ajablanib, "Bu qanaqa komissiya?" deyishadi. Nomlar qo'yishdagi qashshoqlik ehtimol, tarix va madaniyatimiz haqidagi chiqur mal'umotga ega emasligimizdadir.

Insoniyatga ong va til bitib, jamao bo'lib yashay boshgandan buyon turar-joyning atrof-geografiyasini, ekzotik jihat, atoqli kishisi, ba'zan esa urug' nomi bilan atalgan. Bida esa hatto o'sha insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichidagidek donishmandona fikr yuritishdan voz kechilmoxoda. Nega shunday?"

Meni bo'voqelarni nima uchun keltiriyapman. Demochimani, u vaqtlar kattalar gazeta o'qirdi, gazetaning o'rni bor edi, o'qimishli, ziyolining kuni gazeta bilan boshlanardi. Gazeza ushlaganning hurmati bor edi.

Shundan keyin ko'p o'tmay, Samarqand shahringin asosiy maydoniga asli oti Ko'ksaroy qaytdi. Unga kelar katta ko'chalar va uning atrofida aylanlar ko'chalar o'z egalarining, yarashiliq otlar bilan ataldi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur, Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo, Husayn Boyaroq, Shohjahon Mirzo, Mahmud Kosghi'ariy, Mahmud Zamashariyi, Amir Kulol, Yalangto' sh Bahodir, Nodirabegim, Mahtumquli, So'fi Olloyor, Temur Malik, Mir Said Baraka, Abdusloqil G'ijduvoni, Yusuf Hamadoni, Jaloliddin Mangurberdi...

Shahardagi Frunze oti bilan yuritilgan eng uzun va katta ko'chaning nomi o'zgartirilib, Amir Temur qo'yilgанинligi gazetada e'lon qilinishi bilan tushga yaqin Samarqand shahar kommunistik partiysi komiteti (gorkom)ning birinchi sekretari imzosi bilan "Bu bosqinchining oti Samargandga munosib emasligi, ko'chada joylashgan "Krasniy dvigatel" zavodi ishchilar ni norozi ekanligi" va hokazo bitilgan telegramma ham oqamiz". Menda turibdi. Zavod ishchilarli plakatlar ko'tarib chiqqanlarimiy bor gap. Oradan ikki qovun pishig'i o'tmay o'sha telegogrammaga bosh-qosh bo'lgan amaldorlaridan biri mas'ul vazifaga tayinlanganligini haligacha tushuna olmayman...

Baribir redaksiyada ishlagan kunlarimni qo'msayman.

"Maktabni endi bitirib kelgan yigitcha bunday o'tkir maqolalarni o'zi yozishi mumkin emas, bir joydan ko'chirib kelyapti", deganlar ham yo'q emasdi. Shunday savollarga tutilgan kunlarning birida men "Viktor Xara" degan odamning kimligini malqoldim. Savol bergan odamning dimrog'i chog' bo'idi.

Koridorni o'tasida sigaretini buruqsitib, "Ya ji skazal, on pustozvon", dedi. Shunda Habib aka "Viktor Xarani bilish-bilmashli hech narsani belgilamaydi", degancha meni qo'llab-quvvatli. O'sha koridor, o'sha qiya ochilgan eshik, o'chiq eshikdan tushib turgan yorug'lik, yorug'lik va qorong'ulikning kesishgan joyi, hamma-hammasi ko'z o'ngimda. Habib akaning "Bundan keyin birov savol bersa, javob bermang, kimning savol bergisi kelsa, meni oldimga kelsin", deganlari va xonaqa kirishimni ko'z bilan buyurunganlari ham kechagidek yodimda.

Bugun o'sha damlalarni, birga ishslashganlarni, yarim kechasi qattiq nonni bo'lishib yeganlarimini sog'inaman. Xolmuhammad Nurullayev bilan u kishining eski masinasida tumanlarga chiqib, maqola qilib kelgan kunlarni, suratchilar G'ulom Aliyev, Zoir To'raqulova pyonka yuvishiga yordam berishini, Normaluhammad Sayfiddinovning uylarida ijara turmasdan oldin ko'ringandan salom bergan odam ijara turmasdan keyin pulini to'lomay, salom ham berolmay, chekkalab yurilgan kunlarni, Amrillo Ahmedovdan arizachilar bilan qanday suhbatalashish o'rganigan kunlarni qo'msayman.

Bahodir QOBUL.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2023-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 612 nusxada chop etildi. Buyurtma 198. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Zarafshon

САМРАКАНДСКИЙ

ВЕСНИК

MATBUOT UYI

4

ISSN-201667X

O'chakishish, mensimaslikdan kim ZARAR KO'RADI?

Tobim qochib, shifoxonaga borgandim, ilgari bir nufuzli tashkilotda ishlagan tanishimni uchratib qoldim. Tog'ni ursa, talqon qiladigan yigit, oliyohni bitirgan, iqtidorli mutaxassis edi. Qirqa kirmsadan uch-to'rt joyda ishlab ko'rdi, omadi yurishmadi. Uni ko'rib zo'rg'a tanidim, rangi sarg'ayib, ozib-to'zib ketibdi. Insultga chalinib, nogiron bo'lib qolibdi. Qanday yigit edi-ya, achinib ketdim.

- O'zimga o'zim qildim, aka, - dedi salom-alikdan so'ng ovozi titrab. - Obro'li joylarda ishlardim, bila-siz. Amma xudbinligim, o'zimga haddan ziyyod bino qo'yanim, hamkasblarni ko'rolmaslik, vazifamni, qo'da-intizomni pisand qilmaslik tubani yo'llarga boshlad. Boshliqlar, halol odamlar ustidan yozib, ig'vo, fisq-fasod qilib, ularning halovatini budzim. Kecha-kunduz shu haqda o'ylab, odamlarni faqat yomonlik qidirib, uymum o'chdi. Oxir-oqibat bo'zimming ichimdan yemirdi, yurak xastaligini ottirib oldim, diabetga chalindim, yoshim ellikka yetmasdan insult olib, nogiron bo'lib qoldim. Qanchalar noshud, ichi qora odam ekanman-a!

Uning pushaymonida, alamli ko'zlarida o'kinch aks etardi. Biroq endi kech edi. Shifoxonadan qaytar ekanman, o'yaqoldim. Jamiyatda o'ziga bino qo'yan, halol, omadi odamlarni ko'rsa, quvonish, o'rnak olish o'rniga hasaddan ichi kuyib, o'zini qo'yangi joy topolmaydigan xudbin kimsalar qayerdan paydo bo'larkan-a?

Eng yomoni, birovlarga o'chakishib, mensimaslikdan avvalo, ularning o'zlarini zarar ko'radi: sog'liklari yo'qotadi, el nafratiga yo'liqadi, odamlarga qo'shilolmay qoladi. Oqibat shuning bilan tugaymadi. Bunday kimsalar g'alamsidigan ular ishlaydigan joyda ma'naviy muhit, ishchanlik izdan chiqadi, hamkasblar o'tasida o'zaro ishchon yo'qoladi. Biri-biridan hadiksirash paydo bo'ladi. Bunday muhit esa jamao oldidaqidagi vazifalarning bajarilishi ga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ishdan ko'ngli sovgan xodimlar o'tasida mehnat intizomi pasayadi. Boshliqlar haqida har

xil ig'vo, tuhmat, shivir-shivirlar boshlanadi.

Bir qarashda tashkilotda bitta xudbin odam tufayli yuz beradigan bunday hollar arzimas narsadek tuyuladi. Biroq zamiriga chururqo nazar tashlansa, bunday kimsalar tufayli butun jamiyat zarar ko'radi. Ularning ig'vosiga uchgan ayrim kishilarda yurtimizda amalga oshirilayotgan bonyodkorlik ishlariiga shubha paydo bo'ladi. Davralarda o'tirib qolsa, o'zi ham ishonmaydigan fisqu-fasod gaplarni bo'ttirib, odamlarning ensasini qotiradi. Biroq hech kim "Hoy, g'alamis, nima deyapsan?" deb og'ziga urmaydi.


"Birniki mingga, mingniki tumanga" degan naql bor. Andishali xalqimiz, o'zimizga, jamiyatga zarar keltiradigan illatlarni ko'rmaslikka olamiz, har xil bo'limg'ur yolg'on-yashiq, ig'vo gaplarni tarqatuvchi q'arazgo'y kimsalarni bilsak-da, ularni tiyib qo'yishga andisha qilamiz. Bu yanayam xatarli.

O'zbekiston mustaqillikka erishdi, xalqimiz yangi jamiyat quishda, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jabhalarda yak-dilik, ertangi kunga ishchon bilan katta ishlarni amalga oshirmoqda. Shunday ekan, oramizda o'zaro hamjihatlik, mehr-oqibat, ishchanlik muhitini buzishga urinuvchi g'alamis, ig'vogar kimsalarga o'rin bo'lmasisligi kerak. To'g'ri, xalqimizda "Yaxshi oshini yeydi, yomon boshini" degan naql ham bor. Hasadog'y, ichi qora odam qilmishi uchun jazosini oladi, biroq undan halod odamlar, butun jamao azyiat chekishini unutmaylik.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

SAMARQANDNI MASHHUR QILGAN "MING BIR KECHA" ERTAKLARIMI?

Muzeylear xorijiy sayyoohlarni jalb etish, jahon hamjamiyatida davlatning ijobji imijini yaratish maqsadida xalqaro ko'rgazmalarda qatnashadi. Buning uchun muzeiy fondi boy va noyob eksponatlarga ega bo'lishi kerak.



Shu paytgacha Samargand davlat muzeiy-qo'riqxonasi ashayolari ishtirokida Fransiyaning Parij (1992-1993, 2002) va Lion (1998), Shveysariyaning Altendorf (1995), AQSHning Filadelfiya (1999) va Washington (2003), Germaniyaning Shtutgard (1998) va Gannover (2000), Avstraliyaning Sidney (2004), Yaponiyaning Nara (2005), Janubiy Koreyaning Seul (2009), Niderlandiyaning Groningen (2010), Buyuk Britaniyaning London (2013), Saudiya qoligilining Jidda shaharlarida 16 marta xalqaro ko'rgazma tashkil etilgan. Ularda muzeiy-qo'riqxonalaridan keyin Yevropa aholisi maishiy turmushida keskin o'zgarishlar yuz bergan. Balki ushu yurishlardan keyin yevropalik vikinglardan biri ushu yurishlarni bilan borgan joylarida yashovchi arab xalqlari deniz va okeanlarga sayohatga chiqishgan. Arab savdogarlar Afrika, Hindiston, Xitoygacha borish savdogarlik qilgan. Ular sayohatlari davomida ko'rgan va eshitganlarini bir-biriga so'zlab borgan. Oqibatda dunyo xalqlari merosi - "Ming bir kecha" yaratilgan edi. Ushbu manbada Samargand ikki joyda tilga olingan. Birinchi manba Shoh